

COMPARATIVE STUDY OF PERSONAL NAMES, TITLES, AND EPITHETS IN TURKISH AND UZBEK LANGUAGES

Kholida Kamalovna IMAMOVA

Associate Professor, PhD
Romano-Germanic Languages Department
The University of World Economy and Diplomacy
Tashkent, Uzbekistan

TURK VA O'ZBEK TILLARIDAGI KISHI OTI, UNVONI VA LAQABLARINING CHOQ'ISHTIRMA TADQIQI

Xolida Kamalovna IMAMOVA

Dotsent, PhD
Roman-German tillari kafedrası
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Toshkent, O'zbekiston

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИЧНЫХ ИМЁН, ТИТУЛОВ И ПРИЗВИЩ В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Холида Камаловна ИМАМОВА

Доцент, PhD
Кафедра романо-германских языков
Университет мировой экономики и дипломатии
Ташкент, Узбекистан x.imamova@uwed.uz / imamova.h68@gmail.com /
imam_muhammad@mail.ru, ORCID ID: 0000-0002-3438-5514

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для
цитирования):**

Imamova X. K. Turk va o'zbek tillaridagi kishi
oti, unvoni va laqablarining chog'ishtirma
tadqiqi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025.
— 11-jild, № 5. — B. 113-127.

<https://doi.org/10.36078/1762272524>

Received: August 25, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).
This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This comparative study of names, titles and epithets in Turkish and Uzbek is an onomastic aspect of lexicology and is highly engaging. The article explores social similarities and differences through a comparative analysis of names, titles, and epithets in two Turkic languages belonging to the same family group. This study examines the etymological origins of names, titles, and epithets, their place within the language's vocabulary, and their records in lexicographic sources. It is observed that the meanings of names, titles, and epithets expand and contract, while their usage enriches, depending on their characteristics. Even epithets that gained strength in linguistic usage were preserved over time: *Sultan Yıldırım Bayezid*, *Sultan Yavuz Selim*, *Sahibkiran Cihangir*, *Emir Timur Koragon*. An important aspect of examining *names*, *titles*, and *nicknames* in languages is that they help determine a nation's internal characteristics, character, and cultural context. This is first recognized in *the naming* of a child, based on the family's cultural and social standing. Then, in career choice and social standing, *the title* is awarded. Finally, *nicknames* are determined based on character, behavior, activities, and appearance. Some nicknames endure, while others can change or be forgotten. Permanent nicknames are found in lexicographic sources. Nicknames that change or are forgotten over time may survive only in public discourse before being forgotten entirely. While it consists of simple,

derived, and compound words according to its structure, it also varies according to its function. While it is used in several different functions depending on its meaning, it generally has two meanings: a) *positive*, b) *negative*. Another important issue observed in the research that should be taken into consideration is the connection between names, titles and nicknames related to the transformation of a title or nickname into a popular name and its active use: In Turkish — *Yıldırım, Yavuz*; in Uzbek — *Cihangir, Amir, Sulton*, etc. In addition, proverbs and idioms from folk literature were highlighted through titles and nicknames in Turkish and Uzbek, and comparative studies were also included.

Keywords: comparison; sister languages; Uzbek language; Turkish language; personal name; title; nickname.

Annotatsiya. Tadqiqotda ism, unvon va laqablarning etimologik kelib chiqishi, ularning tilning lugʻat fondidan oʻrin olishi hamda leksikografik manbalarda qayd etilishi ustida soʻz yuritiladi. Xususiyatiga koʻra, ism, unvon va laqablarning maʼnosi kengayib-torayib boradi hamda qoʻllanish jarayonida boyib borishi kuzatiladi. Hatto til qoʻllanishida mustahkamlangan ayrim laqablar zamonlar osha saqlanib qoladi: Sulton Boyazid Yildirim, Sulton Yavuz Selim, Sohibqiron Jahongir Amir Temur Koʻragon kabi. Tillarda qoʻllanilayotgan ism, unvon va laqablarning oʻrganilishi dolzarbligining sababi — xalqning ichki xususiyatlarini ochishga xizmat qilishi va madaniy xarakterini belgilashidir. Eng avvalo, farzandga ism qoʻyishda oila madaniyati va ijtimoiy oʻrni namoyon boʻladi. Keyinchalik esa inson egallagan kasbiga va jamiyatdagi mavqeiga koʻra unvonga ega boʻladi. Nihoyat, xarakteri, xulq-atvori, xatti-harakati, faoliyati va tashqi koʻrinishiga koʻra laqab oladi. Laqablarning baʼzilari doimiy, yaʼni qoluvchan boʻlsa, baʼzilari oʻzgaruvchan va unutilib ketuvchi boʻladi. Doimiy laqablar leksikografik manbalarda qayd etiladi, oʻzgaruvchanlari esa xalq ogʻzaki nutqida yashab, vaqt oʻtishi bilan unutiladi. Har ikki tildagi ism, unvon va laqablarda kuzatilgan muhim jihatlardan biri — ularning etimologik kelib chiqishi bir xil boʻlib, asosan arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardir. Tuzilishiga koʻra, ular sodda, yasama va qoʻshma soʻzlardan tashkil topgan; funksiyasiga koʻra esa, turlicha turlarga boʻlinadi. Maʼnosiga koʻra, bir nechta funktsiyani bajarishiga qaramasdan, ular ikki turga ajraladi: a) ijobiy; b) salbiy maʼnoda ishlatiladiganlar. Tadqiqotda qayd etilgan yana bir muhim jihat — ism, unvon va laqablar orasidagi oʻzaro bogʻlanishdir. Bu bogʻlanish, unvon va laqablarning atoqli ismga aylanishi va faol qoʻllanishi bilan belgilanadi. Masalan, turk tilida Yıldırım, Yavuz; oʻzbek tilida esa Jahongir, Amir, Sulton kabi misollar keltiriladi.

Kalit soʻzlar: chogʻishtirma tahlil; qardosh tillar; oʻzbek tili; turk tili; kishi oti; unvon; laqab.

Аннотация. В исследовании рассматривается этимология имен, титулов и прозвищ, их место в лексике языка и их фиксация в лексикографических источниках. По своей природе значение имён, титулов и прозвищ то расширяется, то сужается. Прозвища, устоявшиеся в языке, употребляются до настоящего времени: Sultan Bayazıt Yıldırım, Sultan Yavuz Selim, Sohibqiron Jahongir Amir Timur Koʻragon и т. д. Актуальность изучения имён, титулов и прозвищ, используемых в языках, обусловлена тем, что они служат для раскрытия внутренней сущности народа и определения его культурного облика. В первую очередь, при наречении ребёнка определяется культурная и социальная роль семьи, затем титул приобретается на основе профессии и положения в обществе, и, наконец, прозвище

приобретается на основе характера, поведения, деятельности и внешности. Некоторые прозвища постоянны, другие — изменчивы и забываются. Постоянные прозвища встречаются в лексикографических источниках. Изменчивые и забываемые прозвища живут только в устах людей и со временем стираются из памяти. Характерной особенностью имён, титулов и прозвищ в обоих языках является то, что эти термины имеют одинаковое этимологическое происхождение — это заимствованные из арабского языка слова. По своей структуре они состоят из простых, искусственных и сложных слов, а по своей функции относятся к разным типам. По своему значению, несмотря на выполнение нескольких функций, они делятся на два типа: а) положительные; б) используемые в отрицательном значении. Другим важным аспектом, выявленным в ходе исследования, на который следует обратить внимание, является связь имен, титулов и прозвищ, что соотносится с трансформацией титулов и прозвищ в имена собственные и их активным использованием: в турецком языке — Yildirim, Yavuz; в узбекском языке — Jahongir, Amir, Sulton.

Ключевые слова: сопоставительный анализ; родственные языки; узбекский; турецкий; имя собственное; титул; прозвище.

Kirish

Atoqli otlar leksikologiyaning onomastika bo'limida o'rganiladi. Onomastika o'z ichida: antroponimika, toponimika va etnonimikadan tashkil topadi [Ирискулов 1982: 91]. Atoqli otlar va unga yondosh bo'lgan unvon va laqablar antroponomika bilan birga etnonimikani qamrab oladi. Sababi atoqli otlar qaysi xalqqa mansub bo'lsa ular bilan bog'liq unvon va laqablar ham o'sha xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va madaniyatini o'zida jamlaydi. Boshqacha qilib aytganda, atoqli otlar shaklan mikrolingvistikaning qatlamlaridan biri sanalsa, mazmun-mohiyat nuqtayi nazaridan makrolingvistikaning sohalaridan bo'lgan etnolingvistikaga oid bo'ladi.

Turkologiyada atoqli ot, unvon va laqablar bilan bog'liq ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan [Бегматов 2007; Erol 2010; Dilçin 2014]. Ushbu maqola bir oilaga mansub ikki til — turk va o'zbek tillaridagi atoqli otlar, unvon va laqablarning chog'ishtirma tadqiqi, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ochib berishga qaratilgan.

Turk va o'zbek tillarida qo'llanilayotgan atoqli otlar, unvon va laqablar ikki qardosh tilning tarixiy taraqqiyotida qanday o'zgarishlar yuz bergani, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ochishga xizmat qiladi. Shuning bilan birga, ikki qardosh xalqning madaniyati va etnografiyasini belgilaydi.

Turk va o'zbek tilidagi kishi otlari, unvon va laqablar tarixiy kelib chiqishiga ko'ra, aytarli farq qilmaydi. Har ikki tildagi atoqli otlar, asosan, turkiy, arabcha, forsha va boshqa qatlamga oid so'zlardan iborat.

Asosiy qism

Kishi otlari shakllanishining tarixiy manbalari. Har ikkala xalqda yangi tug'ilgan chaqaloqqa qo'yiladigan otning lug'aviy ma'nosi leksemaning lug'aviy ma'nosiga yaqin bo'lishi mumkin. Ammo otning

ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosidan kengroq va chuqurroq mazmunni qamraydi. Bu haqida E. Begmatov o'zining "O'zbek ismlari ma'nosi" nomli kitobida ismlarning ma'nosini lug'aviy ma'nodan farqli ravishda *etnografik ma'no* deya qayd etadi [Бегматов 2007: 4]. *Etnografik ma'no* — ko'p omillar va bir necha xil o'ziga xos, ya'ni xalqqa oid xususiyatlar asosida shakllanadi. Bular: xalq va oila hayotidagi har xil voqea-hodisalar, urf-odatlar, orzu-istak va tushunchalardan tashkil topadi. Inson hayotida bo'layotgan voqea hodisalarni ruhiy hayot bilan ko'p bog'laydi. Etnografik omillar qadimdan turkiy xalqlarning asosiy yashayotgan hayotiga yondosh bo'lgan boshqa hayotning mavjudligiga bog'laydi va shu hayotdagi ijobiy va salbiy kuchlarning inson hayotiga ta'sirini anglashidan kelib chiqadi. Shu sababli turkiy xalqlarda chaqaloqqa ism berishda shoshqaloqlik qilmasdan katta mas'uliyat bilan yondoshib, chuqur *etnografik ma'noga* ega bo'lgan ismlar qo'yishga harakat qilingan. Turkiy tillarda, jumladan, turk va o'zbek tilida kishi otlari katta guruhni tashkil qilgan.

Turk va o'zbek tilidagi atoqli otlar juda xilma-xil, shu sababli ularni tasniflash zarurati mavjud. Turk va o'zbek tilidagi kishi otlarini, asosan, quyidagi tartibda tasniflash mumkin:

1. *Urug', qavm otlarining kishi otlari bo'lib kelishi.* Turk tili — o'g'uz guruhiga oid bo'lib, O'g'uzxonning ikki xotinidan tug'ilgan 6 farzanddan yuzaga kelgan 24 urug'dan tashkil topgani "O'g'uznoma" dostonida qayd etiladi. O'zbek tili esa qarluq guruhiga oid bo'lib, manbalarda 92 urug'dan tashkil topganligi aytilgan [Дониёров 1968: 5; Нопбоев 1997: 86].

Turk tilida qavmlarning kelib chiqishidagi ba'zi leksik birliklar atoqli ot yoki oilaga tegishlilik oti (*soy adi*) sifatida bugunga qadar qo'llanib kelmoqda: *O'guz, Yildiz, Ayhan, Gökhan, Deniz, Volkan, Avşar* kabi. O'zbek tilida ham xuddi shunday holat kuzatiladi: *O'zbekoyim, Uyg'ur, Uyshunboy, Do'rmon, Baroq, Bo'kaboy* [Бегматов 2007: 608] kabi.

Turk va o'zbek xalqlarining kelib chiqishi turli turkiy urug' va qavmlarga bog'lanadi. Ularning otlari va oilaga tegishlilik oti (*soy adi*)da ana shu urug' va qavmlarning otlari ham saqlanib qolgan. Bu jihatlar ham turk va o'zbek tilidagi rivojlanish va o'zgarishda o'ziga xosliklar mavjud.

Turkiyada 1934-yil 21-iyun kuni "*Soy Adı Kanunu*" qabul qilindi. Qonunga ko'ra, har bir Turkiya fuqarosi ismidan tashqari butun oila a'zolari uchun foydalanadigan umumiy bir nom — *soy adi* (familiya) olishi kerak edi. Tanlanadigan *soy adi* albatta *turkcha* bo'lishi ta'kidlangan. "*Soy Adı Kanunu*" qabul qilinishi bilan 1934-yil 24-noyabrda TBMM (Turkiya Buyuk Millat Majlisi) tomonidan G'oziy Mustafa Kamol Pashaga "Otaturk" (*soy adi*) familiyasi berildi.

Tilshunos olim E. Begmatov: O'rta Osiyoda VI–VII asrlardan ota ismidan keyin *o'g'li, qizi* so'zlarini keltirish orqali (masalan, *Bayna Sangnun o'g'li*), keyinroq ayni vaqtda arablar ta'sirida *ibn* (o'g'li) (masalan, *Ahmad ibn Muhammad*), *bint* (qizi) kabi arabcha so'zlar yordamida nomlashlar bo'lgan, — deya qayd etadi [Бегматов 1998: 32]. Bu o'sha vaqtda turk va o'zbek tili uchun umumiy hodisa sanalgan edi.

XX asrning 1920–1930-yillarida o‘zbeklarning familiyalari, asosan, *Ahmad Fozil o‘g‘li*, *Xakima Fozil qizi* tarzida yuritilgan. Shuningdek, bu davrda ziyolilar orasida qisman -zoda (*Hamza Hakimzoda*, *Turg‘un Sharifzoda*), -iy, -viy, -iya, -viya (*Abdulla Qodiriy*, *Abdulla Alaviy*, *Mirzakalon Ismoil*, *Muzayyana Alaviya*) qo‘shimchalari orqali ism-familiya, taxalluslar yasash ham odat bo‘lgan; ba’zida qo‘shimchalarsiz ham quyidagi shaklda atalgan: *Parda Tursun*, *Sulton Jo‘ra*, *Ilyos Muslim* kabi. 1930-yillarning o‘rtasi va 1940-yillardan ov, (ova), yev (yeva) qo‘shimchalari yordamida hosil qilingan familiyalar o‘zbeklarda muayyan tartibga aylanib, keyinroq qat’iy qoida qilib olindi [Берматов 1998: 32]. Qardosh ikki turk va o‘zbek tili ism-familiyasidagi farqliklar shu yerdan aks eta boshladi.

Yuqorida ta’kidlangan turk va o‘zbek tilida keltirilgan ba’zi atoqli otlar aslida qadimda *urug‘*, *elat* va *qabila* nomlari yoki shu qavmlar bilan bog‘liq bo‘lgan atamalar ma’lum kishi, shaxs nomi bilan atalgan. Demak, tor doiradan kengaygan va keyin yana torayib kishining atoqli ismi yoki familiyasiga aylangan. Semantikada ma’no torayishi va kengayishi haqida ma’lumotlar berilgan [Hengirmen 2015: 391].

2. *Tabu va evfemizm bilan bog‘liq bo‘lgan kishi otlari* — bular asosan islomgacha bo‘lgan davrdagi shamanizm tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, dunyoga kelgan farzandni tashqi yovuz kuchlardan asrash maqsadida yoki istagini ro‘yobga chiqarishga va xalq orasidagi o‘ziga xos an’analarga asoslangandir.

Döne — turk tilidagi *dönmek* = *qaytmoq*, *aylanmoq* fe’lidan yasalgani va qiz farzandi ko‘p bo‘lgan otalarning tilagi sifatida: Erkege dönsün! = O‘g‘il bolaga aylansin! — degan ma’noni bildirishi ta’kidlanadi. *Satılmış* — turk tilidagi *satmak* = *sotmoq* fe’lidan yasalgan ism bo‘lib, boshqalarga *pul* yoki *moddiy buyum* evaziga berilgan, — degan ma’noni anglatadi. Bunday ismlar o‘g‘il farzandi ko‘p o‘lgan oilalar tomonidan atoqli ot sifatida qo‘yilgani manbalarda qayd etiladi. Shu shaklda “yovuz ruhlar”ni chaqaloqni o‘lishiga to‘sqinlik qilgani aytiladi [Gülensoy 1999: 8]. Bu kabi chaqaloqqa ot qo‘yish an’anasi hali hanuz Onado‘lida davom etib kelmoqda: *Dursun*, *Durdu*, *Durmuş*, *Yaşar*, *Baki*, *Yeter*, *Durali*, *Duran*, *Satılmış* kabi [Türktaş 2019: 39].

Bunday ismlar aynan o‘zbek tilida ham mavjud: *Betlar* — betini, yuzini yaxshilik tomon buruvchi, ya’ni *o‘lim chekinar*, *yashab ketar* degan ma’noda qo‘yilgan. *Berun* — begona, yot. Bu farzand bizniki emas deb, yovuz kuchlardan asrash uchun berilgan ism. *İstamas* — chaqaloqning dushmani bo‘lgan yovuz kuchlar bolani istamaydi, mensimaydi, bola sog‘- u salomat bo‘ladi degan ma’noda ot qo‘yiladi [Берматов 2007: 173]. Shuning bilan birga *Tursin* = *Tursinoy*, *Tursinboy* = *Tursingul*, *To‘xtasin* = *To‘xtagul* kabi bir xil ismning ikki jins uchun atoqli ism sifatida qo‘yilishi mumkin. Bu haqida keyinroq batafsil to‘xtalamiz.

Evfemizmga oid kishi otlariga turk va o‘zbek tilida bir-biridan farqli bo‘lgan tomoni bu — ish qurollari bo‘lgan: *tesha*, *bolta*, *o‘roq*, *ketmon* kabi qattiq metaldan yasalgan *ish qurollar*ining atoqli ism sifatida turk tilida qo‘llanilishi kuzatilmaydi. O‘zbek tilida *tesha*, *bolta*, *o‘roq*, *ketmon* kabi chidamli, mehnatkash, o‘tkir xalq koriga yaraydigan kuchli, baquvvat bo‘lsin deb *Teshavoy*, *Boltaboy*, *O‘roqboy*, *Ketmonboy* kabi ismlar ham qo‘yilgan.

Ammo turkiy xalqlar uchun totem sanalgan *Kurt* = *Bo'ri* nomi bilan bog'liq kishi oti yoki *soy adi* (familiya) ni turk tilida ham o'zbek tilida ham ko'p uchratish mumkin: *Bozkurt*, *Kurtuluş*, *Akkurt* = *Bo'rivoy*, *Bo'riboyvacha*, *Bo'riniso* kabi.

3. *Diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan kishi otlari*. Bu turdagi ismlarni o'z ichida yana bir necha guruhga ajratib qayd etish mumkin: *Ollohning nomi bilan bog'liq ismlar*, *Payg'ambarlar nomlari*, *aziz-avliyolar nomlari*, *muqaddas joy nomlari* kabi. *Islom dini* qabul qilinganda geografik jihatdan katta farq yo'q edi. Shu sababli *din* bilan bog'liq ismlarning qo'llanishi turk va o'zbek tilida deyarli bir xil; *Mehmet*, *Memet* = *Muhammad*, *Mamat*, *Ahmet* = *Ahmad*, *Ismail* = *Ismoil* kabi. Payg'ambar ismi sanalgan *Muhammad* turk va o'zbek tilida *Memet*, *Mehmet* = *Mamat*, *Mahamat* shaklida qisqarishga uchradi. Shuning bilan birga "*Mehmetçik*", Turk qurolli kuchlarida xizmat qilgan *turk askariga* hurmat va ehtirom bilan aytilgan murojaat so'zi sanaladi. Qisqargan *Mehmet* ismiga kichraytirish erkalash qo'shimchasi *-çik* qo'shilib, turk xalqi orasida Payg'ambarimiz *Muhammad* (s.a.v)ning ismi bo'lganligi sababli keng ishlatilgan "*Mehmet*" ismiga hurmat va ehtirom ramzi ham sanaladi. Turkiyada turk askari "*Mehmetçik*", millatning (xalqning) askarga bergan *mehribon*, *himoyachi* sifatleri bilan sharaflangan *laqabdir*. Bu yerda atoqli ismning laqabga aylanishi kuzatiladi. "*Mehmetçik*" terminining yuzaga kelish tarixi aslida juda uzun. *Çanakkale* jangida qahramonlik ko'rsatgan "*Mehmet Çavuş* (serjant *Mehmet*)" nomi bilan bog'lanadi.

Nazarimizda, "*Mehmetçik*" terminining yuzaga kelish poydevori undan ham avval, Usmonli sultonlari *Islom* dinining himoyachisi ham bo'lgan davrlarga borib taqalishi mumkin. U davrda hali murojaat termini sifatida ishlatilmasa-da, ma'naviy tomondan asos solingan edi deyish mumkin. Zamonaviy turk tilida "*Mehmetçik*" termini bilan bog'liq she'r va qo'shiqlar ham mavjud.

4. *Unvonlarning kishilar oti sifatida ishlatilishi*. Unvonlar shaxslarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, erishgan martabasi asosida beriladigan rasmiy nom sanaladi. Biz bu unvonlarni ikki qismga ajratishimiz mumkin:

a) eski unvonlar: *'tr' sultan* = *'öz'sulton*, *'tr' han* = *'öz'xon*, *'tr' emir*, *padişah* = *'öz'amir*, *'tr' seyyid* = *'öz'sayid*, *'tr' bey* = *'öz'bek*, *'tr' hoca* = *'öz'xo'ja* kabi;

b) yangi unvonlar: *'tr' bakan* = *'öz'vazir*, *'tr'milletvekili* = *'öz'deputat*, *'tr' professör* = *'öz'professor*, *'tr' doktor* = *'öz'doktor*, *'tr'doçent* = *'öz'dotsent*, *'tr'başkan* = *'öz' boshliq* va boshqalar.

Mavzumiz uchun muhim bo'lgani bu — eski unvonlardir. Aslida unvonlar shaxslarga ismdan keyin berilgan yoki qo'lga kiritilgan *daraja* sanaladi. Muhimi, eski unvonlar bugungi kunda atoqli ot sifatida ham keng ko'lamda ishlatilmoqda. Turk tilida: *Mergen* "usta", *Tarhan* / *Tarkan* "harbiy unvon", *Noyan* "bek" [Gülensoy 1999: 3]. O'zbek tilida esa *Sulton*, *Sultonposhsha*, *Poshshajon*, *Amir*, *Sayid*, *Xo'ja* kabi.

Turk tilida eski unvonlarning ishlatilishi 1934-yil 26-noyabrda chiqqan 2590-raqamli qonun bilan *ağa*, *hacı*, *hafız*, *hoca*, *efendi*, *bey*, *beyefendi*, *hanım*, *hanımefendi*, *paşa*, *hazret* kabi unvon va laqablarning qo'llanilishi taqiqlandi. Shunga qaramay, turk tilidan butunlay chiqib

ketmadi. Murojaat shakllarida ishlatilishda davom etmoqda [Imamova 2010: 3].

5. *Turk va o'zbek tillarida son so'z turkumidagi so'zlar bilan bog'liq kishi otlari.* Turk tilida son turkumidagi sozlar bilan bog'liq kishi otlari yoki *soy adi* (familiya) deyarli uchramaydi. Ammo tug'ilgan chaqaloqning nechanchi farzand bo'lib tug'ilganiga ko'ra ism qo'yish odati anchagina keng tarqalgan. Ayniqsa, birinchi tug'ilgan farzandning ismlari sifatida: *Ilknur (Birinchinur), İlkay (Birinchiyo), İlker (Birinchiyigit), İlksen (Birinchisan), Âdem (Odamato)*; ikkinchi farzandga *Sâni (İkkinchi), Sâniye (İkkinchi)*; oxirgi farzandga *Songül (Oxirgigul), Soner (Oxirgiyigit), Dursun (To'xtasin), Sonay (Oxirgiyo), Yeter (To'xtasin)* kabi ismlarni ko'p uchratish mumkin [Türktaş 2019: 41]. *Rabia (To'rtinchi, Bahor, Muqaddas kabi ma'nolarni anglatadi)* arab tilidan olingan bo'lib, bu ism ham raqam bilan bog'liq sanaladi. Turk tilida raqam bilan bog'liq boshqa ismlarni uchratmadik. O'zbek tilida turk tilidan farqli o'laroq, *raqamlar* bilan bog'liq juda ko'p atoqli ism va familiyalarni uchratish mumkin: *Panji (фт.)* — oiladagi beshinchi farzand: *Panjibibi, Panjigul, Panjixon* [Берматов 2007: 337]; *Rabia (-ap.)* ~ oilada to'rtinchi oyda tug'ilgan qiz farzand [Берматов 2007: 344]. Bular arab va fors-tojik tilidan olingan bo'lsa, *Sakkizboy (y3.)* — oiladagi sakkizinchi farzand; *Oltmish, Yetmish, Sakson, To'qson, Saksonmurod, Saksono'ra (y3.)* — otasi oltmish, yetmish, sakson, to'qsonga kirganda tug'ilgan o'g'il farzand kabilar shular jumlasidan [Берматов 2007: 334]. Raqamlar bilan bog'liq sof turkiycha ismlarning ishlatilishida o'zbek tilining faolligi diqqatni tortadi. Demak, bu yerda turk va o'zbek tilidagi atoqli otlarda *farqliklardan yana birini* ko'rish mumkin. Farqlik sifatida turklarda raqamlar ishtirok etmaydi, ammo raqamlarga ishora orqali metaforik yo'l bilan atoqli ism yasaladi va farzandlarga nom sifatida beriladi. Bunda *Adem* (birinchi odam), *ilk* (boshlang'ich), *son* (oxirgisi), *dur* (oxirgisi bo'lsin, to'xtasin) kabi raqamga ishora qiluvchi *ko'rsatkichlar* faol ishlatiladi. O'zbek tilida arabcha, forsha, turkiycha raqamni bildiruvchi leksik birliklar to'g'ridan to'g'ri ishlatiladi. Metaforik yo'l orqali raqamlarga ishora qilish turk tilidagidek o'zbek tilida kuzatilmaydi.

6. *Hafta kunlari bilan bog'liq kishi otlari.* Turk va o'zbek tillarida bunday otlarning ishlatilishida ancha farq bor. Turk tilida hafta kunlarining nomlari kishi oti sifatida deyarli ishlatilmaydi. O'zbek tilida esa hafta kunlari faol tarzda kishi oti sifatida ishlatilishini ko'rish mumkin. *Duyshan = Dushan (ft.)* — *dushanba* kuni tug'ilgan farzand [Берматов 2007: 121], *Paysham (ft.) = Payshanba (ft.)* — *payshanba* kuni tug'ilgan farzand. Bu kun xosiyatli hisoblanadi [Берматов 2007: 336]. *Cuma = Cumali, Cumagul* haftaning *cuma* kuni tug'ilgan farzand. *Bozor = Bozorboy, Bozoroy* haftaning *bozor* kuni tug'ilgan farzand. O'zbek tilida juma kuni tug'ilgan qiz bolaga *Jumagul* ismi qo'yish imkoni bo'lmasa *Odina* deb ism qo'yiladi. *Odina* ismga duch kelinganda bu atoqli ism berilgan qiz — juma kuni tug'ilgan farzandligi aytilmasa ham tushunarli bo'ladi. Shuning o'zi o'zbek xalqida farzandlar tug'ilganda hafta kunlariga ham alohida e'tibor qaratilishini yaxshi anglatadi. Demak, hafta kunlari bilan bog'liq kishi ismlarining qo'llanilishida turk tiliga qaraganda o'zbek tilida faollik kuzatiladi. Buni ham qardosh tillardagi farqlardan biri desak bo'ladi.

7. *Arabcha shamsiy va qamariy oylarning nomlari bilan bog'liq kishi otlari.* Alloh taolo Qur'oni karimda oylarning adadi o'n ikkita ekanini aytib, ulardan to'rttasi *muharram*, ya'ni alohida ehtirom qilinadigan oylar ekanini zikr qilgan. Bular: *zulqa'da*, *zulhijja*, *muharram* va *rajab* oylaridir. Bu oylar azaldan, ya'ni Islomdan avval ham hurmat va ehtirom qilib kelingan. Turkiy xalqlar bunga alohida e'tibor qaratib, turk va o'zbek tilida atoqli ismlarda ko'p qo'llagan: *Recep* = *Rajab*, *Rajabberdi*, *Rajabbibi*, *Ramazan* = *Ramazon* [Берматов 2007: 345], *Shaban* = *Shabon*, *Qurbon*, *Qurbonali* [Берматов 2007: 552] kabi.

8. *Koinot va sayyoralar oti bilan bog'liq bo'lgan kishi otlari.* Ma'lumki, insoniyat azaldan koinot va undagi sayyoralarga bog'liq sirsanoat bilan qiziqib kelgan. Yer yuzidagi voqea-hodisalar, jismlar, metallar, ranglarni bir-birining ajralmas parchasi ekanligi ularning *tushunchasi*, *yashash tarzi*, *madaniyatida* o'z aksini topgan. Oilada farzand dunyoga kelganida sayyoralarning ayni vaqtdagi harakatiga ham e'tibor berilib, shunga mos ism qo'yilgan holatlar kuzatiladi. Bular: *Dunya* = *Dunyo*, *Ayhan* = *Oyxon*, *Yildiz* = *Yulduz*, *Mihrimah* = *Shamsiqamar*, *Zehra* = *Zuhro* "Cho'lpon yulduzi" [Unat 2000: 651] kabi. Turk va o'zbek tilida koinot va sayyoralar nomi bilan bog'liq ismlar deyarli bir xil ishlatilishini kuzatish mumkin. Farq faqat talaffuzda kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan turk va o'zbek tilidagi ismlar guruhi, tasnifi taxminiy hisoblanib, asosiylarigina sanab o'tildi. Bu guruhni yana uzaytirish mumkin: *turli o'simlik nomlari*, *qimmatbaho tosh va metal nomlari*, *Islomgacha bo'lgan din bilan bog'liq ismlar*, *tanasida ma'lum nuqson yoki belgi bilan dunyoga kelgan farzandlarga berilgan ismlar* va boshqa kabi...

Turkiy xalqlarda qadimdan chaqaloq dunyoga kelganda oila, urug', elat a'zolarida mavjud bo'lgan ismni yangi tug'ilgan chaqaloqqa qayta qo'yish mumkin emas edi. Kattalarning ismini yoki boshqa kishining farzandining ismini yangi tug'ilgan chaqaloqqa qo'yish hurmatsizlik sanalgan. Hattoki, ayollar (ayniqsa, kelinlar)ga oila, urug' yoki elat vakillarining — xoh erkak, xoh ayol bo'lsin — ismlarini aytish odatga ko'ra mumkin bo'lmagan, tabu hisoblangan. Shuning uchun ularning ismlari o'rniga "katta (qaynim) qiz", "kichkina (qaynim) qiz", "tilla qiz", "shirin qiz", "polvon", "ashulachi" kabi shaxslarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi nomlar bilan murojaat qilganlar. Bugungi kunda turk tilida bu an'ana yo'qolgan bo'lsa-da, o'zbek tilida, ayniqsa shaharlarda urbanizatsiya ta'sirida yo'qolish arafasida, ammo ayrim viloyatlarda hanuzgacha saqlanib qolgan. Shu an'analarning davomi sifatida Otabek, Otajon, Dadajon, Dadaxon kabi atoqli ismlar oiladagi otaning ismi o'rnida farzandlarga berilib, atoqli ism sifatida keng qo'llanadi. O'zbek tilida bunday holat — oilada otaning ismini aytmaslik an'anasi natijasida vujudga kelgan. Bunday ismlar turk tilida uchramaydi, ya'ni o'zbek tilidagidek Otabek, Otajon, Dadajon, Dadaxon shaklidagi atoqli ismlar mavjud emas. Bu holat ham qardosh tillar orasidagi farqlardan biri sifatida qayd etiladi.

Ma'lumki, turkiy tillarda grammatik jins kategoriyasi mavjud emas, biroq mantiqiy (logik) jins mavjud: ayol-erkak, qiz-o'g'il, kampir-chol kabi juftliklarda bu aniq ko'rinadi. Jins bilan bog'liq holda, turkiy tillarda shunday atoqli ismlar borki, ular ham ayol, ham erkak ismlari qatorida

uchraydi. Masalan, turk tilida — Aydın, Reyhan, Dursun; o'zbek tilida esa — To'xta, Tursin, O'ktam, Parda va boshqalar. Shuningdek, turk tilidagi ba'zi atoqli otlarning qo'llanishida ayol va erkak ismlari o'rtasida farq deyarli sezilmaydi. O'zbek tilida esa jins farqini ko'rsatuvchi ayrim morfemalar mavjud: erkaklarda — -jon, -boy, -bek; ayollarda esa — -xon, -oy, -gul, -bib, -niso kabi qo'shimchalar ba'zan jinsni ifodalash uchun xizmat qiladi. Biroq bu ko'rsatkichlarsiz ham ishlatilish hollari kuzatiladi. Yana bir diqqatga sazovor jihat shundaki, o'zbek tilidagi ayrim ismlarda -jon, -xon kabi o'zak morfemalar ayol va erkak ismlarida birdek ishlatiladi: Poshshajon, Anorjon — ayollar uchun; Nodirxon, Avazxon — erkaklar uchun. Biroq bu holatni turk va o'zbek tillaridagi atoqli ismlarning umumiy farqlovchi belgisi sifatida qarash to'g'ri emas. Turk tilida *-han* (masalan, Ayhan, Gökhan) asosan erkak ismlarida ishlatilsa, *-can* o'zak morfemasi ham faqat erkak ismlarida uchraydi.

Unvon va laqablarning ishlatilishi. Unvonlarni yuqorida ikki guruhga ajratgan edik: *eski* va *yangi unvonlar*. Ba'zi tarixiy unvonlar zamonlar osha o'zining ijtimoiy ahamiyatini butunlay yoki qisman yo'qotishi natijasida atoqli ot sifatida jamiyatda yangidan mohiyat kasb etgani kuzatiladi. Bunga misol sifatida (*tr.*) *Tarhan* (*harbiy unvon*), *Emir* (*amir*), *Noyan* (*xo'jayin, janob*), *Mergen* (*usta*)ni qayd etish mumkin [Gülensoy1999: 8] = (*o'z*) *Sulton*, *Amir*, *Sayid* kabi. Bu unvonlar turk va o'zbek tilining izohli lug'atlarida konnotativ ma'nosi bilan birga denotativ ma'nolaridan biri — atoqli ot sifatida ham ta'kidlanadi. Lekin atoqli ot sifatidagi *etnografik ma'nosi* turk va o'zbek tilining izohli lug'atida ochib berilmaydi. Masalan, tarixda unvon nomi bo'lib, hozirda atoqli ot sifatida ishlatilayotgan *Sulton* ismining *etnografik ma'nosi*ni olim Ernest Begmatov quyidagicha bayon qiladi: 1) shoh, hukmdor, podshoh; 2) ismlar tarkibida yuksak martabali, ulug'vor, tolei porloq ma'nolarini bildiradi; 3) ba'zi ismlarda *sulton* so'zi hazrati Sulton (Ahmad Yassaviy) qabrini yoki boshqa muqaddas qadamjolarni ziyorat qilgach tug'ilgan bola, ya'ni *sultonning tuxfasi, ehsoni* ma'nolarini ifoda qiladi [Бегматов 2007: 585]. Shu iqtibosning o'zi *Sulton* atoqli ismining *etnografik ma'nosi* uning *lug'aviy ma'nosi*dan ba'zan tubdan farq qilishini ko'rsatadi.

Unvonlar o'zbek tilida atoqli ot tarkibida ishlatilib, qo'shma so'z shaklidagi shaxs otlari yasaydi: *Sultonposhsha*, *Sayidxo'ja*, *Bekajon*, *Bekposhsha*, *Poshshajon*, *To'rabek*, *To'raboy*, *To'raxon*, *To'rajon*, *Xo'jabek*, *Xo'jaxon*, *Shoraxmat*, *Shoazim*, *Mirtemir*, *Mirafzal*, *Mirzajon* kabi. E'tibor qaratilsa, sanalgan atoqli otlarining ba'zilarida har ikki qism ham unvon nomlari bo'lsa, ba'zilarida bir qismi unvon nomi sanaladi. Etnografik nuqtayi nazardan qaralsa, atoqli ot tarkibidagi unvon nomlari shaxsning unvonini emas, balki shu shaxs taalluqli bo'lgan *oila* yoki *qavm*ning kelib chiqishi xalqning qaysi tabaqasiga oidligini ko'rsatadi. Bu an'ana o'zbek tilida hali-hanuz saqlanib kelinmoqda. Ayniqsa, sovcilikka borilganda ba'zan: "*biz xo'jalardanmiz*" yoki "*biz sayidlardanmiz*" degan gaplar aytiladi. Buning ma'nosi: o'zlarini *xo'ja* yoki *sayidlardan* deb ta'kidlovchilar oddiy xalqdan qiz olishi, lekin qiz berishmasligini shunday bayon qilib bildirishadi.

Umuman olganda, har bir leksik birlik ma'lum vaqt davomida o'z vazifasini bajarar ekan, ishlatilish umri davomida ma'no xususiyati, vazifasi va ishlatilish o'rniga ko'ra o'zgaradi. Ma'no xususiyatining

torayib kengayishidan tashqari funksiyonal vazifasi butunlay yangicha ahamiyat kasb etadi. Bu mana shu eskirgan unvonlar misolida yaqqol koʻzga tashlanadi. Tarixiy yoki arxaik soʻz qatlamidan joy olgan unvonlar yangicha atoqli ism sifatida qayta tilshunoslikka kirib keldi va turli lugʻatlarda aks etdi. Bu jarayon turk tilida ham, oʻzbek tilida ham birdek kuzatiladi.

Yuqorida *urugʻ* yoki *elat*, *unvon* nomlarini atoqli otlarga koʻchib maʼlum kishining ismi sifatida ishlatilishi va izohli lugʻatlarda leksik birlikning lugʻaviy maʼnosiga izoh berilganda maʼnolari oxirida atoqli ism sifatida kishining shaxsiy oti tarzida ham qoʻllanilishi taʼkidlandi. Ammo atoqli ot sifatidagi *etnografik maʼnosi* haqida faqat *ʼIsmlarning izohli lugʻatlariʼ* da maʼlumot beriladi [Bermatov 2007].

Ism va unvonlar ijtimoiy hayotda shaxsni identifikatsiya qilishda rasmiy belgi sifatida namoyon boʻladi. Ular huquqiy va ijtimoiy jihatdan tan olingan nominativ birliklar hisoblanadi. Laqablar esa aksincha, ijtimoiy muhitda norasmiy tarzda shakllanadigan va koʻpincha xalq orasida qoʻllaniladigan nomlar sifatida talqin etiladi. Ular oʻz semantik mohiyatiga koʻra ijobiy (maqtov, hurmat, ehtiromni ifodalovchi) va salbiy (masxara, tanqid yoki kamsituvchi maʼnodagi) guruhlariga ajratiladi. Shu bilan birga, baʼzi hollarda laqablar uzoq muddat davomida ijtimoiy muomalada keng qoʻllanishi natijasida rasmiy tus olishi, yaʼni shaxsning barqaror identifikatori sifatida tan olinishi holatlari ham kuzatiladi. Misol tariqasida turk yozuvchisi R.N. Guntekinning *“Choliqushi”* romani qahramoni Faridaninig bir necha laqabi roman davomida aytib oʻtiladi. Bular: *Çalikuşu*, *Gülbeşeker*, *İpekböceği* kabilar. Oʻzbek yozuvchisi A. Qahhorning *“Sinchalak”* romanidagi *Sinchalak* laqabi, *“Oltin yulduz”* romanidagi *Duvarak* laqabi, S. Ayniyning *“Qullar”* romanidagi *Xatirchilik* laqabi yoki X. Nazirning *“Soʻnmas chaqmoqlar”* romanidagi *Mitti* laqabi shular jumlasidan sanaladi. Turk va oʻzbek tilidagi bu laqablar shaxsga zamondoshlari tomonidan ularning xarakteri, xulq-atvori va tashqi belgilariga asosan berilgan boʻlib, laqab olgan shaxslar bilan birga ijtimoiy hayotda qoʻllanishdan chiqib ketadi.

Ammo shunday laqablar borki, ular zamonlar osha saqlanib, turli lugʻatlardan joy olishga ulgurgan. Bunga turk va oʻzbek tilida misol tariqasida *Fatih Sulton Mehmet*, *Sulton Yildirim Boyazit*, *Sulton Yavuz Selim*, *Kanuni Sultan Süleyman*, *Sohibqiron Jahongir Amir Temur Koʻragon*, *Temur Lang*, *Mir Alisher Navoiy* kabi tarixiy shaxslarni sanab oʻtish mumkin. *Fatih* (*fath etuvchi*, *qoʻlga kirituvchi*), *Yildirim* (*yashin*, *chaqmoq*), *Yavuz* (*berahm*, *ayamaydigan*), *Kanuni* (*qonun chiqaruvchi*, *haqiqatgoʻy*, *adolatparvar*), *Sohibqiron* (*dunyoni qoʻlga olgan*, *yengilmas*, *jahonning egasi*), *Jahongir* (*Jahonni qoʻlga kiritgan*), *Koʻragon* (*kuyov*), *Lang* (*oqsoq*) leksik birliklarning hammasi *laqab* sanaladi. Avval taʼkidlanganidek, laqab shaxs tomonidan odatda ism va unvondan keyin, yaʼni nominativ tizimning yakuniy bosqichida egallanadigan nom shaklidir. Shunga qaramay, amaliy nutq jarayonida laqab koʻpincha shaxsning atoqli ismiga oldindan qoʻshilib qoʻllanadi va shu orqali shaxsning xarakteri, ijtimoiy mavqei yoki oʻziga xos sifatlarini ifodalash funksiyasini bajaradi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, laqab asosiy ism boʻlmasa ham, shaxs sifatini ifodalash, ijtimoiy hayotdagi oʻrnini belgilashda baʼzida

ismdan ham ahamiyatliroq bo'lishi mumkin. Aynan shu sababli, ba'zi laqablar ham turk tilida, ham o'zbek tilida bugungi kunda dunyoga kelgan farzandlarga laqab sifatida emas, balki atoqli ot sifatida qo'yilmoqda. Hatto Yavuz, Lang kabi laqablarning dastlabki lug'aviy ma'nolari (mos ravishda berahim, ayamaydigan va oqsoq) semantik jihatdan salbiy bo'lishiga qaramay, keyinchalik bu so'zlar butunlay teskari — kuchli, yengilmas kabi ijobiy ma'nolarni kasb etganini leksikografik manbalarda [TS 1998] ta'kidlash mumkin.

Aynan mana shunday jarayonda sayqallanib, yuzaga kelgan holatlarda yangi ma'no va mazmun kasb etgan so'zlarning lug'aviy ma'nodan chekinib qo'shimcha ma'no kasb etishi atoqli ismlardagi *etnografik ma'noni* yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Atoqli ismlarda etnografik ma'noning chuqurroq bayon qilinishidagi qiyinchilik tarixiy jarayon bilan birga *vaqt* va *voqea-hodisa* bilan bog'liq *an'ananing* so'z bilan o'quvchiga yetkazib berishdagi qiyinchilikka asoslanadi. Ismlardagi *etnografik ma'no* — *o'qib tushunish* bilan emas, *o'qib chuqur anglash* bilan bog'liqdir. Demak, laqablar har qanday jamiyatda tarixiy jarayon tufayli atoqli otga aylanishi mumkinligi misollar asosida ko'rib chiqildi.

Laqablarning yana bir turi borki, ular (tr.) *takma ad*, *mahlas* = (o'z.) *taxallus* deb yuritiladi. Laqablar asosan biror shaxsga jamiyatdagi boshqa kishilar tarafidan berilsa, taxallus ko'proq shaxsning o'zi tomonidan tanlanadi: *Rumiy*, *Muhibbiy*, *Buxoriy*, *Navoiy* kabi. Diqqatimizni tortgan tomoni joy nomlari — *toponimlar* ham *laqab* yoki *taxallus* sifatida ishlatilishidir. Mashhur, elga tanilgan buyuk insonlar o'zlariga taxallus tanlaganda ko'proq yashab ijod qilgan joyini nazarda tutishgan. Buning ikki sababi bo'lishi mumkin: 1) yashab ijod qilgan joyga nisbatan hurmat ifodasi; 2) ayni sohada yashab ijod qilgan ikki turli joydan bo'lgan kishilarni bir-biridan farq qilish bo'lsa kerak.

Laqablar haqida shunday xulosa qilish mumkin: laqablarning ba'zilari atoqli ot sifatida doimiy, ya'ni qoluvchan bo'lsa, ba'zilari esa o'zgaruvchan va unutilib ketadigan bo'ladi. Doimiy qoluvchan laqablar leksikografik manbalardan joy oladi. O'zgaruvchan va unutilib ketadigan laqablar esa faqat xalq og'zaki nutqida yashaydi va vaqti kelib unutiladi.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, turkiy xalqlarda qadimiy an'analar saqlanib, farzandga ism berishda avvalo oilaning madaniy va ijtimoiy o'rni inobatga olinadi. Keyinchalik, inson egallagan kasbi va jamiyatdagi mavqeiga ko'ra unvon bilan taqdirlanadi, nihoyat, xarakteri, xulq-atvori, xatti-harakati, faoliyati va tashqi ko'rinishiga asoslanib laqab oladi. Shu bilan birga, zamonaviy turk tilida shaxslarga beriladigan ism, unvon va laqablarda turkiylashtirish jarayoni kuzatilsa, o'zbek tilida turkiy, forsiy va arabiy ismlar hanuzgacha faol ishlatiladi; oxirgi paytlarda esa arabiy ismlarning ko'p qo'llanilishi seziladi. Turk tilidagi ismlarning ko'proq turkiylashtirishiga esa Otaturk tomonidan amalga oshirilgan Lotin alifbosi joriy qilinishi va Til inqilobi alohida sabab bo'lgan.

Kishi ismlari, unvonlar va laqablar har bir xalqda mavjud bo'lgani kabi, turk va o'zbek xalqi ijtimoiy hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, xalq adabiyotining og'zaki ijodi — ibora va maqollarda ham o'rin olgan. Maqollar har bir xalqda boylik sifatida qadrlanadi va ularning bir qismi kishi ismlaridagi obrazlar orqali hayot falsafasini aks ettirishga qaratilgan. Shu bois, so'zlovchi, xoh turk bo'lsin,

xoh o'zbek, o'z nutqida ushbu maqollardan foydalangan holda nutqining ta'sirchanligini oshirishga intiladi.

Misollarga murojaat qilamiz:

— *'Vermeyince Mabud neylesin Sultan Mahmud'* — bu yerda Sultan Mahmud tarixiy shaxs, Usmonli imperiyasining sultonlaridan biridir. Mazmuni shundan iboratki, agar inson taqdiriga Alloh biror narsani nasib etmasa, zamonaning eng buyuk shaxsi, ko'p imkoniyatga ega sulton ham buni bera olmaydi.

— *'Bekri Mustafa kadi (imam) olunca dunyanin ne olacağı anlaşılır'* [T.S. 2005: 105] — ishlar noma'qul insonlarga qolsa, hamma ishlar noto'g'ri oqadi va tartib buziladi, degan ma'noni bildiradi.

— *'Dünya Hz. Suleyman'a kalmamış ki'* — dunyo vaqtinchalik, hamma narsa o'tkinchi, degan mazmunni ifodalaydi. Bu maqoldagi Sulaymon ismi payg'ambar Sulaymon yoki Qonuniy Sulton Sulaymon bo'lishi mumkin. Har ikkisi ham katta boylik va hududga ega bo'lgan shaxslar edi.

— *'Muhur kimdeyse, Suleyman odur'* [T.S., 2005: 1432] — vakolat kimda bo'lsa, qudrat o'sha kishiga tegishlidir.

O'zbek tilida ham "Sulaymon" atoqli ot bilan bog'liq qiziq maqol mavjud: "Sulaymon o'ldi, devlar quturdi" — bu maqol kuchli va hammaga so'zi o'tadigan inson ketsa yoki vafot etsa, o'zini kuchli hisoblaydigan, yo'l boshchilikka yaramaydiganlar boshboshdoqlik qilishi, ishdan bo'yin tovlaydigan insonlar uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, o'zbek tilidagi ushbu maqol tarixiy payg'ambar Sulaymon ismiga borib taqaladi. Afsonalarga ko'ra, Sulaymon Payg'ambar ins-u jinslar bilan birga devlarga ham hukm o'tkazgan. Shu sababli maqolda Sulaymon va Dev atamasi bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy o'zining "Badoe ul-bidoya" devonidagi bir g'azalda Sulaymonning behisob mol-mulkiga ishora qiladi:

Nuh umriyu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo,

Ich, Navoiy, bodakim, olam g'ami behudadur [Navoiy, 1991: 220].

Biror ishning xatosi tuzatilmay, to'g'riladik deyilganda, avvalgi xatolar ko'rib chiqilib, hech narsa o'zgarmagan ma'nosi tushuniladi. Shu mazmunda hozirgi kunda ko'p ishlatiladigan maqollardan biri — *'Aliho'ja, Ho'jaali'* [O'XM 2005: 58] bo'lib, u o'sha-o'sha, ya'ni hech narsa o'zgarmagan degan ma'noni beradi. Ushbu maqoldagi atoqli ism Ali+xo'ja va Xo'ja+ali ikki o'zak morfemali ism bo'lib, o'zak morfemalar joyi almashgan taqdirda ham ma'no o'zgarmaydi.

Xuddi shunga yaqin yana bir maqol — *"Ishni Ismat qiladi, Lofni Toshmat uradi"* [O'XM 2005: 95]. Bu maqolda atoqli ismlar Ismat va Toshmat ikki bo'g'inli, oxirgi bo'g'inlari bir xil fonemalardan tashkil topgan bo'lib, qofiya va ohangga moslashish orqali *"ishni biri qiladi, lekin boshqa kishi maqtanadi"* ma'nosini beradi. Shu ma'noda Ismat = Toshmat shaxsiyati orqali inson xarakteridagi salbiy xususiyat tanqid qilinadi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, maqollarda shaxs nomlarining ishlatilishi atoqli ism egasining tarixda va ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, qoldirgan yaxshi yoki yomon ishlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, atoqli otlarning etnografik ma'nosi maqol mazmunini yanada ochishga xizmat qiladi. Natijada, har bir shaxsning qilgan ishi

nafaqat xalq xotirasida yashab qoladi, balki madaniy meros namunalarida ham aks etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, turk va o'zbek tillaridagi kishi otlarining o'xshash tomoni bir oilaga mansub bo'lishi, kishi oti, unvon va laqablarning kelib chiqishidagi etimologik bog'lanish, shuningdek, unvon va laqablarning kishi otiga aylanishi hamda faol qo'llanilishi bilan bog'liqdir.

Shu bilan birga, ularning o'ziga xos farqli jihatlari ham mavjud. O'zbek tilidagi atoqli ismlarda hafta kunlari va turkiycha sonlarning keng qo'llanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, jins farqliligidan qat'i nazar bir xil ismlar har ikki tilda uchrashi mumkin, ammo o'zbek tilida ayol jinsini bildiruvchi xon, oy, gul, bibi, niso kabi ko'rsatkichlarning ko'pligi turk tilidan farq qiladi.

Turk tilida bir kishining rasmiy hujjatlarida ketma-ket ikki ismi yozilishi odatiy: masalan, Suleyman Hilmi, Ayşe Nur, Can Polat. O'zbek tilida esa atoqli ismlarda bunday tartib kuzatilmaydi.

Hozirgi turk tilida kishilarga beriladigan otlar, unvon va laqablarda turkiylashtirish jarayoni kuzatilsa, o'zbek tilida turkiy, forsiy va arabiy ismlar hanuzgacha faol ishlatiladi. Oxirgi paytlarda arabiy ismlarning ko'p qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, turk va o'zbek tillarida kishi oti, unvon va laqablaridan birining vazifasi ikkinchisiga o'tishi, ya'ni funksional jihatdan o'zgarish yasashi kuzatiladi. Bu farqlar bir oilaga mansub, lekin turli tillardagi kishi otlarining o'ziga xos xususiyatlaridan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Бегматов Э. Ўзбек исмлари. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. — 206 б.
- Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. Изоҳли луғат. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. — 608 б.
- Дониёров Х. Ўзбек уруғлари ва шевалари. — Т.: Фан, 1968. — 98 б.
- Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. — Т.: Ўқитувчи, 1992. — 252 б.
- Navoiy A. Badoe ul-bidoya. — Т.: 1991. — 489 б.
- Норбоев Н. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. — Т.: РИЦ, 1997. — 86 б.
- O'XM — O'zbek xalq maqollari. — Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005. — 512 b.
- Sâbir, Nedâ el-Hüseyinî. İnsan İsimleri Hakkında Bir Araştırma. Çev: Ahmet YILMAZ. <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/184397>
- Dilçin C. Adlar Sözlüğü. — İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2014.
- Ergene O. Türk Kişi Adlarında Örneklenen Söz Dizimsel Yapılar. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi, 5(2), 2016. — S. 626–650.
- Erol A. Adlarımız, Şarkılarla Şiirlerle Türkülerle ve Tarihî Örneklerle. — İstanbul: Çağrı Yayınları, 2010.

- Gülensoy T. Türk Kişi Adlarının Dil ve Tarih Açısından Önemi. Türk Dili, Sayı: 565, Ocak, 1999. — S. 3–8.
- Gürsoy E.N. İki Cinse Ortak Olan Kişi Adları. ACTA TURCICA Çevrimiçi Tematik Türkoloji Dergisi, Yıl VI, Sayı 1-1, Ocak, 2014.
- Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. — Ankara: Engin Yayınevi, 2015. — S. 615.
- Herdağdelen A. Modern Türkiye’de Kişi Adları. Dilbilim Araştırmaları Dergisi, 2014. <https://arxiv.org/pdf/1801.00049>
- Imamova H.K. Türkiye Türkçesi ile Özbek Türkçesinde Nezaket Anlamı Taşıyan Seslenmeler. A.Ü.Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi [TAED], No. 42, 2010. — S. 1–10.
- Kocapınar P. Eski Kültürlerde Gök ve Güneşle İlgili Bazı Kavramların Kıpçak Sözlüklerine Yansıması. İğd Üniv Sos Bil Der / Igd Univ Jour Soc Sci, Sayı 23, 2020. — P. 457–480.
- Türktaş M. Türklerde Ad Verme ile İlgili Bazı Tespitler. TÜRKÜL Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi, 2019, 7(17). — P. 34–44. <https://doi.org/10.12992/TURUK652>
- T.S. Türkçe Sözlük. — Ankara: TDK Yayınları, 2005. — S. 1432.
- Unat Y. Eski Astronomi Metinlerinde Karşılaşılan Astronomi Terimlerine İlişkin Bir Sözlük Denemesi. — Ankara: OTAM, 2000. — S. 651.

References

- Begmatov, E. (1998). *O‘zbek ismlari* (Uzbek Names), Tashkent, Uzbekistan Milliy Entsiklopediya. (In Uzb.)
- Begmatov, E. (2007). *O‘zbek ismlari ma‘nosi. Izohli lug‘at* (Meanings of Uzbek Names. Explanatory Dictionary), Tashkent, Uzbekistan Milliy Entsiklopediya. (In Uzb.)
- Doniyorov, X. (1968). *O‘zbek urug‘lari va shevalari* (Uzbek Tribes and Dialects), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Irisqulov, M.T. (1992). *Tilshunoslikka kirish* (Introduction to Linguistics), Tashkent, Ukituvchi. (In Uzb.)
- Navoiy, A. (1991). *Badoe ul-bidoya*, Tashkent. (In Uzb.)
- Norboev, N. (1997). *O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida* (About Tribes and Clans of the Uzbek People), Tashkent, RITs. (In Uzb.)
- O‘XM. (2005). *O‘zbek xalq maqollari* (Uzbek Folk Proverbs), Tashkent, Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. (In Uzb.)
- Sâbir, N. el-H. (n.d.). *İnsan isimleri hakkında bir araştırma* (A Study on Personal Names). Translated by A. Yılmaz. Available at: <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/184397> (In Turk.)
- Dilçin, C. (2014). *Adlar Sözlüğü* (Dictionary of Names), Istanbul, Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları. (In Turk.)
- Ergene, O. (2016). *Türk kişi adlarında örneklenen söz dizimsel yapılar* (Syntactic Structures Exemplified in Turkish Personal Names), Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi, 5(2), 626–650. (In Turk.)
- Erol, A. (2010). *Adlarımız, Şarkılarla Şiirlerle Türkülerle ve Tarihi Örneklerle* (Our Names in Songs, Poems, Folk Songs, and Historical Examples), Istanbul, Çağrı Yayınları. (In Turk.)

- Gülensoy, T. (1999). *Türk kişi adlarının dil ve tarih açısından önemi* (Importance of Turkish Personal Names in Terms of Language and History), *Türk Dili*, No. 565, 3–8. (In Turk.)
- Gürsoy, E.N. (2014). *İki cinse ortak olan kişi adları* (Personal Names Shared by Two Genders), *ACTA TURCICA Çevrimiçi Tematik Türkoloji Dergisi*, VI(1-1), 34–44. (In Turk.)
- Hengirmen, M. (2015). *Türkçe Dilbilgisi* (Turkish Grammar), Ankara, Engin Yayınevi. (In Turk.)
- Herdağdelen, A. (2014). *Modern Türkiye’de kişi adları* (Personal Names in Modern Turkey), *Dilbilim Araştırmaları Dergisi*. Available at: <https://arxiv.org/pdf/1801.00049> (In Turk.)
- Imamova, H.K. (2010). *Türkiye Türkçesi ile Özbek Türkçesinde nezaket anlamı taşıyan seslenmeler* (Forms of Address Conveying Politeness in Turkish and Uzbek), A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi [TAED], No. 42, 1–10. (In Turk.)
- Kocapınar, P. (2020). *Eski kültürlerde gök ve güneşle ilgili bazı kavramların Kıpçak sözlüklerine yansımaları* (Reflection of Some Sky and Sun Concepts in Kipchak Dictionaries in Ancient Cultures), *Iğd Üniv Sos Bil Der / Iğd Univ Jour Soc Sci*, No. 23, 457–480. (In Turk.)
- Türktaş, M. (2019). *Türklerde ad verme ile ilgili bazı tespitler* (Some Observations on Name-Giving in Turks), *TÜRÜK Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi*, 7(17), 34–44. <https://doi.org/10.12992/TURUK652> (In Turk.)
- T.S. (2005). *Türkçe Sözlük* (Turkish Dictionary), Ankara, TDK Yayınları. (In Turk.)
- Unat, Y. (2000). *Eski Astronomi Metinlerinde Karşılaşılan Astronomi Terimlerine İlişkin Bir Sözlük Denemesi* (A Lexical Study on Astronomical Terms Found in Ancient Astronomy Texts), Ankara, OTAM. (In Turk.)